



AGROTURIZM RIVOJLANGAN XORIJIY DAVLATLAR TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISH

Abdullayeva Ozoda Sa‘dulla qizi

71010401 “Turizm (faoliyat turlari bo‘yicha)” mutaxassisligi 2 bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada hududlarda qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida hududiy agroturizm sohalarini rivojlantirishning xorijiy davlatlar tadqiqotlaridan foydalanish jihatlari o‘rganilgan. Shuningdek agroturizm tushunchasiga nazariy jihatdan yondashilgan. Agroturizm – turistlarni yoki tashrif buyuruvchilarni hududda qishloq xo‘jaligi uchun maqsadli foydalaniladigan hududlarga jalb etishga qaratilgan. Bugungi kunda esa agroturizm o‘zining shahar shovqinidan charchaganlarni jalb etish hamda qishloq ho‘jaligini amalga oshirilayotgan yangiliklarni targ‘ib qilish uchun ham o‘rganish jadallashdi.

Kalit so‘zlar. Turizm, agroturizm, agroturizm, rekreatsion turizm, qishloq xo‘jaligi.

Agroturizm iqtisodiy va noiqtisodiy xususiyatdagi, ham xalqaro, ham milliy darajadagi yo‘nalishlarni o‘zida mujassam yetgan faoliyat sohasidir. Agroturizmining rivojlanishi 1970-yillarda boshlangan. aholining qishloqdan shaharga ommaviy chiqishini to‘xtatish maqsadida XX asrda tashkil qilina boshlangan. Hududlarda agroturizmni rivojlanishi bilan mavjud kurortlarga nisbatan arzon muqobil sifatida paydo bo‘ldi. Agroturizmi boshqa eko, etno turizm turlari bilan birga birinchi navbatda, kichik yerlarda tabiiy landshaftlar saqlanib qolgan sanoati rivojlangan mamlakatlarda ommaviy tarqaldi (AQSHda — 4- 5 foiz, G‘arbiy Yevropada — 2-3 foiz).

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, agroturizmni rivojlantirish qishloq ho‘jaligi tarmoqlarining bir qismini ishlab chiqarish tarmog‘idan xizmat ko‘rsatish sohasiga o‘tkazishning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy dasturi bo‘lib xizmat qildi. Ta’kidlash joizki, agroturizm doirasida bevosita ishlab chiqarish faoliyati hamamalga oshiriladi. Turli xalqlarning milliy qadriyatlari, yashash tarzi hamda an’anaviy hunarmandchilik ishlari qayta tiklash, rivojlantirish, milliy hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish, ekologik toza organik oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni targ‘ib etish imkoniyati kengaydi.

Dunyo miqiyosida agroturizmga Yevropa davlatlari katta qiziqish qaratishdi. Italiya, Fransiya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlar Agroturizmini rivojlantirishning yorqin namunasi sifatida misol bo‘la oladi. Bugungi kunda Italiyada



agroturizmining yetakchisi sifatida e'tirof etilgan, undan yiliga 350 milliondollariga yaqin foyda oladi. Yevropa Ittifoqi Italiya misolida G'arbiy yevropada qishloq xo'jaligini saqlab qolish, aholi turmush tarzini yaxshilash, sifatli va tabiiy mahsulot yetishtirish yo'lini qishloq turizmi orqali rivojlantirish mumkin ekanligini ko'rsatib beradi. Italiyada hududida asossan mutloq ustunlik jihatidan kelib chiqib iqlim, aholining ixtisoslashuvi orqali tanlangan misol tariqasida zaytun plantatsiyalarida terib olish jarayoni, zaytun mahsulotidan olinadigan yog', konservalash, quritilish jarayonlarini turistlarga ko'rsatib, plantatsiya bilan tanishtirish, fermerlar o'z faoliyati, bu sohadagi yangiliklar ko'rsatiladi.

Agroturizm hududdagi tabiatni asrash vositalari va usullarini topish imkonini beradi. Ko'pgina mamlakatlarda turizmning ushbu turini rivojlantirish milliy qishloq landshaftlarini muhofaza qilish va rekreatsiya qilishning asosiy yo'nalishiga aylandi. Shuningdek, hududlarda faoliyat olib boruvchi agrobiznes vakillari tomonidan ko'shimcha xizmatlarni tashkil qishilish, daromad manbai sifatida tanlash imkonini beradi. Agroturizmning rivojlanishini bo'yicha xorijiy tajribalardan Italiya tajribasini o'rganish jarayonida o'ziga xos qadimiy bog'lari, zaytun plantatsiyalari, sut va sut mahsulotlarini (pishloq turlari, brinza, yangi sog'ilgan sut va sut mahsulotlari) bugungi kunda ham turistlarni o'zlariga jalb etmoqda[2].

Alohida e'tibor qaratish joyiz bo'lgan jihatni ham hisobga olish zarur Evropachekka qishloq joylarida qishloq xo'jaligi yerdan foydalanishning eng muhim shakliga qishloq jamoasining eng muhim faoliyati hisoblanmaydi. Unda yangi g'oyalar, mahsulotlar yetishtirishda innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalanish, mahsulotlarning ilmiy tadqiqotlar orqali yangi turlarini ishlab chiqish, ularning yangi xususiyatlarini topish muhim ahamiyatga ega. Yerlardan unumli foydalanish, o'g'itlarni oqilona ishlatish borasida ilgarilab ketgan.

Hududlarning agroturizm bo'yicha rivojlantirishida asosan uning mutloq avfzalligi bilan bog'liqdir. Ularning ekoturistik, etnik jihatdan o'ziga xos tarihga egabo'lishi, ularning milliy bayramlari, milliy festevallarini rivojlantirishi, shuningdek, hududda fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari iqtisodligidan kelib chiqqan holda oyilaviy biznesni va kichik tadbirkorlikni, xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali qishloq hududlarida agroturizm turli yo'nalishlarda rivojlanib o'z natijasini ko'rsatgan[1].

Olib borilgan tadqiqotlar mobaynida Gruziya, Yaponiya, Italiya, Shvetsariya tajribalari o'rganildi. Iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan Gruziya va Yaponiya tajribalari chuqur o'rganildi.

Gruziya tajribasi – Gruziyaning agroturizm tashkil qilish jarayoni hududlarda turizmni rivojlantirishda davlat va aholining o'z tashabbuslari o'rganildi va tahlil



qilindi. Gruziya iqtisodiyotining rivojlantirishda asosiy manbasi turizmdir. Bunda vino, pishliq ishlab chiqarish, churchxela shirinligini tayyorlash jarayonlarini ko'rsatishadi va sayyohlarga tayyor mahsulotlarni sotishadi. Bu hududda mavjud tarixiy yodgorliklarini ham roli katta hisoblanadi. Ammo turizm yo'nalishlarni yanada mazmunli tashkil qilish maqsadida ular tarixiy va agroturizmsalohiyatini bir biriga bog'lab turistlarni vaqtlarini yanada qiziqarli o'tkazishadi va ko'proq ma'lumotlarni targ'ib qilishadi. Gruziya agroturizm imkoniyatlarida e'tiborli jihati shundaki, hududda daraxtlarni kesishmasligi, yashil hududlarniasrash, yangi bino qurish jarayonida ham daraxtlarni asrab, arxitekturani daraxtlarga (yashillikni saqlab qolishga) moslab qurishga alohida e'tibor qaratilgan. Har bir hudud uchun maxsus Logotiplar orqali mahsulotlr qadoqlanadi bunda uzum barglari,vino idishlar(riton)dan foydalanishadi.

Kaxetiya (Gruziya) hududi o'zining uzumchilik, vino ishlab chiqarish, Eno turizmi bilan mashhur hisoblanadi. Aholi uy sharoitida ham vino mahsulotlari, sut mahsulotlaridan pishloq, brinza, xonadonda yetishtirilgan meva va savzavot mahsulotlaridan foydalanib, turistlarni qarshi olishadi. Qishloq aholisining tashabbusi bilan uy sharoitida uzumdan turli shirinliklar tayyorlanadi. Tayyorlash jarayonlarini master klass sifatida ko'rsatib berishadi. Turistlarga xizmat ko'rsatishda eko jihozlardan keng foydalaniladi, qurigan darahtlardan foydalanib, oshxona mebellaridan foydalaniladi. Undan tashqari tandirda non yopish jarayonini alohida master klass ko'rsatish xizmati ham mavjud. Albatta bu aholi daromadini oshirish imkonini beradi. Gruziya tajribasining o'ziga xosligi – bunda davlat, hududiy boshqarma va uyxo'jaligi hamkorligida amalga oshiriladi.

Yaponiya davlatida agroturizm salohiyatini agrobiznes rivojlantirish va agroturizm uchun infratuzilmasini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Yaponiyaning chekka hududlarini rivojlantirishda davlat va kichik biznes, tadbirkorlikka keng imkoniyat beradi. Bu borada yuqori tajribaga ega. Hududni rivojlanishida ko'proq davlat va xududiy tashkilotlarning tashabbuslari orqali aholidaromadini oshirishga imkoniyat beradi. Tadqiqot natijasida Aiti Perfekturasining Fermer xo'jaliklaridan olingan interviyu natijasida ma'lum bo'lishicha fermerlar hamkorlikda savdo shahobchalarini tashkil qilishadi. Har bir fermer o'zining onsonqadoqash tizimig ega. Mahsulotlarni sifati doimiy standartlashdan o'tadi. Standartga mos kelmagan mahsulotlarni qayta ishlash fabrika yoki korxonlariga yuboriladi[4].

O'rganilgan ma'lumotlar asosida quyida Yaponiyaning Aiti prefekturasining rivojlantirish mehanizmi chuqurroq tadqiq qilindi.

Yaponiyaning Aiti prefekturasini sanoat asosida rivojlantirish tashkiliy tuzilmasini tahlili quyidagilardan iborat:



- Aiti prefekturasi hududiy boshqarmasi qishloq xo'jaligini rivojlantirish hududiy tashkiloti bilan to'g'ridan to'g'ri hamkorlikda faoliyat olib boradi.

Aiti prefekturasi qishloq xo'jaligini rivojlantirish hududiy tashkiloti moliyaviy ko'mak beruvchi tashkilotlar bilan, yuristlar assotsiatsiyasi, boshqaruvni qo'llab-quvvatlash tashkiloti, kompleks qo'llab-quvvatlovchi tashkilot (Yaponiyaning hududiy innovatsiya va kichik biznesni rivojlantirish tashkiloti), ilm-fan, texnologik tomonidan qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. Tashrif buyurgan turistlar ma'lum bir qonun qoidalar orqali fermer xo'jaliklarida harakatlanadilar.

Ushbu tashkilotlar va korxonalar hududda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'mak beradi. Aholiga qishloq xo'jaligining so'ngi yangiliklari, texnik imkoniyatlar bo'yicha konsultativ maslahatlar bepul berib boriladi.

Yaponiyaning yana bir tajribasi – qishloq xo'jaligi mahsulotlariga qo'shilgan qiymat zanjiri asosida mahsulot qiymatini oshiradi.

Aiti prefekturasida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali hududlarda agroturizmni rivojlantirishmoqda.

Tadqiqotlar va Yevropa qishloq (agro) turizm federatsiyasi ma'lumotiga ko'ra, Yevropaning 27 mamlakatida 100,0 mingdan ziyod joylashtirish vositalari mavjud. Bunda:

Ikki kishi uchun bir honaning narxi 20-200 AQSH dollari oralig'ida bo'lib, odatda 40-70 AQSH dollarini tashkil etadi.

- Buyuk Britaniyada 60 foiz fermerlar turizm sohasida daromad olishadi. O'rtacha yillik daromad 10-50 ming AQSH dollarini tashkil etadi.

- Yevropada agroturizmni eng rivojlangan mashhur yo'nalishlari bu Fransiya, Buyuk Britaniya va Italiya mamlakatlari hisoblanadi.

Agro turizmning Italiya tajribasiga ko'ra, bu davlatda qishloq turizmi paydo bo'lgan va tan olingan birinchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Ular oddiy italyan fermerasida yashash va ishlash imkonini beradi. Qishloq turizmini rivojlanishi ular uchun qo'shimcha daromad hisoblanadi. O'zining ko'p vaqtini sarflaydigan fermer xo'jaliklari egalari uchun turistlarning yordami, ularning shu sohaga qiziqishini orttirish qishloq xo'jaligi faoliyatining bir bo'lagi hisoblanadi.

Urushdan keyingi yillarda dehqonlar qiyinchilik bilan omon qolishgan, shuning uchun yer egalari uchun qo'shimcha daromad topish istagi ortgan. Italiya qishloqlariga kelgan turistlar xilma-xil qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanish, Italiyan taomlari hamda hududning o'ziga xos an'analari va yashash tarzi ularni qiziqitira boshladi. Agroturizmining muhim vazifalaridan biri qishloq xo'jaligining yangi o'ziga xos



tarmog'ini tashkil yetish orqali alohida qishloq aholipunktларini rivojlantirishga turtki berish, ular aholisining daromad darajasini oshirish, urbanizatsiya oqimini kamaytirishdan iborat. Uning rivojlanishiga faol jamoat arboblari, hududiy jamoat o'zini o'zi boshqarish organlari a'zolari yordam berishi mumkin[3].

Mahalliy tashabbuslarni amalga oshirishning asosiy tamoyillari:

- faol odamlarni topish, "pastdan" tashabbusni uyg'otish va tegishli tayyorgarlikni tashkil yetish, tadbirlarni birgalikda rejalashtirish va tashkil yetish muhim;
- hududlarda qishloq tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy resurslar mavjud, ammo ulardan foydalanish uchun ko'nikma va bilim zarur;
- "hokimiyat – biznes – aholi – turist" hamkorligi barqaror natijalarga erishishga yordam beradi;
- qishloq obodonchiligi yetakchilarini qo'llab-quvvatlash muhim.

Bugungi kunda ko'plab turizm va qishloq xo'jaligibilan bog'liq bo'lgan xalqaro tashkilotlar jumladan oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Butunjahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) Qishloq turizmi butun dunyoda yashil turizmi bilan bog'liq yangi loyihalarni amalga oshirmoqda.

Agroturizmning Italiya tajribasiga ko'ra, bu davlatda qishloq turizmi paydo bo'lgan va tan olingan birinchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Ular oddiy italiyanfermasida yashash va ishlash imkonini beradi. Qishloq turizmini rivojlanishi ular uchun qo'shimcha daromad hisoblanadi. O'zining ko'p vaqtini sarflaydigan fermer xo'jaliklari egalari uchun turistlarning yordami, ularning shu sohaga qiziqishini orttirish qishloq xo'jaligi faoliyatining bir bo'lagi hisoblanadi.

Urushdan keyingi yillarda dehqonlar zo'rg'a omon qolishgan, shuning uchun yer egalari uchun qo'shimcha daromad topish istagi ortgan. Italiya qishloqlariga kelgan turistlar xilma-xil qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanish, italiyan taomlari hamda hududning o'ziga xos an'analari va yashash tarzi ularni qiziqitira boshladi.

Italiyaliklarning mehmondo'stligi tashrif buyuruvchilarning arzon dam olishga bo'lgan ehtiyojlari hududdagi aholini sifatli xizmat ko'rsatish va dam oluvchilarga barcha shart-sharoitlarni yarata boshlagan. Bundan olingan daromad yuqori bo'lib, qishloqlarda daromadli biznes ekanligini tez orada bilib olishgan italiyaliklar o'z uylarini fermalarini jihozlashni boshladilar.

XX asrning 70-yillarida qishloq xo'jaliklarida vino, zaytun moyi va boshqamahsulotlar ishlab chiqarishdan tashqari, turistlarga rasman xonalarni ijaraga beradigan fermer xo'jaliklari paydo bo'la boshladi[1].

Qishloq xo'jaligi bo'yicha qoida tariqasida, umumiy tozalik qoidalari ishlab chiqilgan,



ammo mehmonlarni ko'ngil ochish uchun maxsus dasturi yo'q. Italiyaning Boloniya agroturizm fermalarining faoliyati tadqiq qilinganida, bu fermalarda mezbonlar odatdagi ishlari bilan shug'ullanishadi, sayyohlar esa unda imkoni boricha va xohlaganlaricha ishtirok etishlari mumkin. Bugungi kunda Italiyada qishloq turizmi allaqachon shakllangan bozor hisoblanadi.

Ma'lumotlarga qaraganda har yili Italiyada ikki milliondan ortiq aholi tomorqa va fermalarga kelib ishlab, mamlakatning iqtisodiyotiga va maxalliy byudjetiga salmoqli foyda keltiradi.

Xorijiy davlatlarning agroturizm sohasidagi yutuqlari va erishilgan natijalarini tadqiq qilib, ushbu yutuqlar va ilg'or natijalarni mamlakatimiz agroturizmi sohasiga quyidagilarni joriy qilinishini maqsadga muvofiq:

- qishloq hududlaridagi xo'jalik subyektlarida – fermerlar, dehqon xo'jaliklari, agroklastarlarda agroturizm shoxobchalarini tashkil qilish va talabgorlarning kasbiy salohiyatini oshirish maqsadida maxsus amaliy seminarlar, dala sharoitida ko'rgazmalar o'tkazish;
- talabgorlarni xorijiy davlatlarga malaka oshirish, tajriba almashish va kasbiy salohiyatlarini oshirish bo'yicha amaliy master-klasslarni tashkil qilish;
- agroturizm shoxobchalarini tashkil qilganligi uchun maxsus sertifikatlarni taqdim qilish, ularni agroturizm salohiyatidan olingan xizmatlar ko'rsatish, ish bajarish yoki boshqa bog'liq tadbirkorlik faoliyatlaridan olinadigan soliqlarni boshlang'ich 3 yilda ozod qilish;
- manfaatdor vazirlik va idoralar tomonidan, jumladan Qishloq xo'jaligi vazirligi va Turizmni rivojlantirish hududiy boshqarmalari hisobidan agroturizm sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy ekspertlarni taklif qilish va tanlab olingan hududlarda namunaviy agroturizm shoxobchalarini tashkil qilish;
- Qishloq xo'jaligi vazirligi va Turizmni rivojlantirish hududiy boshqarmalari, oliy ta'lim bilan bog'liq ta'lim muassasalar, shuningdek, mamlakatimizdagi xorijiy davlatlar va tashkilotlar, moliyaviy institutlarning vakolatxonalari tomonidan maxsus grant loyihalarini ishlab chiqish va bunda mamlakatimizning har bir hududlarini qamrab olishni ko'zda tutish lozim.

Shundan hulosa qilishimiz mumkinki, biz mamlakatimizda agroturizmni rivojlantirish uchun Gruziya hamda Yaponiya tajribalaridan foydalanilgan holda tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarni tizimlashtirish maqsadida qishloq hududlarida agroturizm rivojlanishining institutsional tuzilmasi taklifi kiritildi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida agroturizm sohalarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda qishloq



xo‘jaligi va turizm sohasining rivojlanishi borasida uzoq yillik tajribaga ega. Bugungi kunda qishloq aholisining mahsulot yetishtirish, dehqonchilik, chorvachilik va boshqa qishloq xo‘jaligi sohalariga ixtisoslashuviga karamasdan, agroturizm rivojlantirish uchun tajribalari yetishmaydi. Mavjud salohiyat resurslaridan oqilona foydalanish orqali aholini yashash tarzini rivojlantirish muhimdir. Hududlarda turizmni rivojlantirish iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirishga katta tasir ko‘rsatadi, shuningdek, bu tarmoqlar o‘zaro ta’sirga ega.

Tadqiqot ishlariga ko‘ra, agroturizmning rivojlantirish zaruriyati va bugungi kundagi qishloq xo‘jaligi tizimidagi asosiy muammolar ko‘rib chiqilgan.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda agroturizmning ahamiyati va o‘rni rejada agroturizm sohasining rivojlanishi, olimlar tomonidan bildirilgan fikrlartavsiflari keltirilgan.

Agroturizm – bu qishloq hududlarida mavjud fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari, uy xo‘jaliklari yetishtirgan mahsulotlaridan tatib ko‘rish, yetishtirish, terish, qayta ishlash jarayonida mahalliy va chet ellik turistlarni ishtirokida jarayonlar bilan tanishtirish, o‘rgatish, amaliy bajarib ko‘rishdir. Bunda albatta, hududlarda mavjud turistik salohiyatdan va undagi boshqa turizm turlaridan foydalanish tashrif buyuruvchi turistlarga qishloq hududlarda ko‘proq vaqt o‘tazishimkonini beradi. Bu esa mahalliy aholining ish bilan ta’milash, daromadini oshirishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish konsepsiyasi 2015 y
2. Калмуратов Бахтияр Сейтмуратович, Жиемуратов Темирбай Полатбаевич, Калбаева И. Е. АНАЛИЗ ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА // Бюллетень науки и практики. 2022. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-turisticheskogo-potentsiala-regiona>
3. Калмуратов Б.С. Перспективы развития экотуризма в Республике Каракалпакстан// Материалы «Международной научно-практической конференций «Развитие туризма Казахстана на мировом уровне: проблемы и перспективы» 9 апреля 2024 г. РК г. Астана стр 92-99.
4. Norchayev A. N. Qalmuratov B., Razbayev S.N. Rekreatsiya turizmini rivojlantirishni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishni boshqarish//“Innovations in Science and Technologies” илмий-электрон журнали махсус сон. 2025 йил. 421-429 betlar